



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Mamirov Hamidullo Fayzullo o'g'li
Bozorova Mahbuba Bohodir qizi
Haydarova Mashhura Mustafoyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya yo'nalishi (kechki ta'lim) talabalari

Ilmiy rahbar: Yursinboyev Jaxongir Mexrojidin o'g'li

CHDPU Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i

Annotatsiya:

Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari hamda zamonaviy ijtimoiy siyosatning ustuvor vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy himoya sohasida raqamlashtirish jarayonlari, ehtiyojmand qatlamlarni manzilli qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, islohotlar, ijtimoiy siyosat, aholini qo'llab-quvvatlash, manzilli yordam, bandlik, ijtimoiy xizmatlar, raqamlashtirish, ijtimoiy adolat, inson qadri.*

KIRISH

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar va ehtiyojmand qatlamlar uchun munosib sharoit yaratish jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda ijtimoiy sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson qadri va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan yangi ijtimoiy siyosat shakllantirildi. Xususan, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifati oshirilib, nafaqa va moddiy yordam tizimi soddalashtirilmoqda hamda raqamlashtirilmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi globallashtirish jarayonida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, fuqarolarning munosib turmush darajasini ta'minlash hamda inson kapitalini rivojlantirish bevosita kuchli ijtimoiy siyosat bilan bog'liqdir. O'zbekistonda ham keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida ijtimoiy himoya tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar aholining turli qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatish, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish, pensiya va nafaqa tizimini soddalashtirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ijtimoiy himoya tizimi — bu fuqarolarni turli ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilish, ularning hayot sifati va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar majmuasidir. Ushbu tizimga pensiya, nafaqa, moddiy yordam, tibbiy xizmatlar, bandlik dasturlari hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar kiradi. Tadqiqotchilar fikricha, “ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi davlatning ijtimoiy adolatni ta’minlash darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir” [1; 56]. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar aholining ehtiyojmand qatlamlariga yanada yaqinlashishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini boshqarishda zamonaviy mexanizmlar joriy etildi. Xususan, “Yagona ijtimoiy reyestr” tizimining yo‘lga qo‘yilishi ehtiyojmand oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatishda muhim vosita bo‘ldi. Avvallari moddiy yordam olish jarayoni ko‘plab hujjatlar va ortiqcha byurokratik to‘siqlar bilan murakkablashgan bo‘lsa, hozirda ko‘plab xizmatlar elektron shaklga o‘tkazildi. Bu esa aholiga qulaylik yaratish bilan birga, korrupsion holatlarning kamayishiga ham xizmat qilmoqda. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, “raqamlashtirish ijtimoiy himoya tizimining ochiqqligi va shaffofligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi” [2; 112].

Ijtimoiy himoya tizimidagi muhim yo‘nalishlardan biri kambag‘allikni qisqartirish masalasidir. Bugungi kunda aholining daromadini oshirish, bandlikni ta’minlash va kasb-hunarga o‘qitish orqali kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi tizimlarning joriy etilishi ehtiyojmand oilalar bilan individual ishlash imkoniyatini yaratdi. Bu tizimlar orqali fuqarolarning muammolari o‘rganilib, ularga amaliy yordam ko‘rsatish mexanizmi shakllantirildi.

Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarning eng muhim jihati — aholining davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashidir. Chunki inson o‘zini himoyalangan his qilgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot kuchayadi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatning faol qatlamini shakllantirish mumkin. Shu sababli ijtimoiy himoya tizimini faqat moddiy yordam berish bilan cheklab bo‘lmaydi, balki insonlarning jamiyatdagi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ham baholash lozim.

Shuningdek, pensiya va nafaqa tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Pensiya tayinlash jarayonining soddalashtirilishi, ayrim hujjatlarning elektron bazalar orqali avtomatik shakllantirilishi fuqarolar uchun katta qulaylik yaratdi. Bu boradagi islohotlar aholining ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojlarini tezkor va samarali qondirishga xizmat qilmoqda. Olimlarning fikriga ko‘ra, “ijtimoiy ta’minot tizimining zamonaviy shakllari aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi” [3; 89].

Ijtimoiy himoya tizimida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash ham ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ular uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirish, infratuzilmalarni moslashtirish hamda bandlik imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini yaratishga xizmat qiladi. Muallifning nazarida,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



nogironligi bo‘lgan shaxslarni faqat yordam oluvchi qatlam sifatida emas, balki jamiyatning faol a‘zosi sifatida qo‘llab-quvvatlash zamonaviy ijtimoiy siyosatning eng muhim talabidir.

Bundan tashqari, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida mahallalarda “ijtimoiy xodim” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim orqali fuqarolarning muammolarini joyida o‘rganish va ularga individual yondashuv asosida yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratildi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, “mahalla tizimi orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy xizmatlar aholining davlat organlariga murojaat qilishdagi masofasini qisqartiradi” [4; 74]. Bu esa aholining ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish uchun aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni to‘liq raqamlashtirish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashda sun‘iy intellekt va elektron ma‘lumotlar bazasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, ularning bandligini ta‘minlash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv muhitni kengaytirish orqali ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Mahalla tizimi bilan hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy xodimlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham aholining ijtimoiy muammolarini tezkor hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta‘minlash va inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, manzilli yordam tizimining joriy etilishi, raqamlashtirish jarayonlari hamda ijtimoiy xizmatlar sifatining oshirilishi ushbu sohadagi o‘zgarishlarning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Kelgusida ham ijtimoiy himoya tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish jamiyat barqarorligi va farovonligini ta‘minlashning muhim omili bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PF–6183-son Farmoni “2021–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish strategiyasi to‘g‘risida”.
3. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Abdurahmonov Q.X. *Ijtimoiy soha iqtisodiyoti*. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019.
5. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. *Ijtimoiy siyosat va inson taraqqiyoti*. – Toshkent: “Universitet”, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari. – Toshkent, 2024.